

**О‘ЗBEK TANQIDCHI OLIMLARINING BIOGRAFIK  
METODDAN FOYDALANISHLARI XUSUSIDA  
(Naim Karimov va Umarali Normatov faoliyati misolida)**

*Abdimôminova Dildora  
Termiz davlat universiteti  
O‘zbek filologiyasi fakulteti  
3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek adabiyot tanqidchiligi va zabardast ikki tanqidchi olimlar Naim Karimov hamda Umarali Normatovning hayot yo'li, ijodiy faoliyati yoritilgan. Ularning asarlaridagi biografik metod va munaqqidlarining o'ziga xos uslubi, asarlarining ilmiy xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** munaqqid, tanqid, naqd, naqada, qatag'on, tsimlyaniskiy, blanmanje, jarkop, sharob, dutor.

O'zbek adabiyotining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan adabiy tanqid xalqimiz, yozuvchilarimiz orasida kecha yoki bir necha yil oldin shakllangan emas, balki ilmda o'ziga xos hodisa sifatida antik davrda, Platon, Aristotel zamonidayoq ularning faoliyatida namoyon bo'lgan. Tanqid deyilganda kishi ongida ma'lum asarga yoki inson bajargan ishga ijobiy fikrdan ko'ra salbiy fikrni berish shakllanib qolgan. Aslida esa tanqid bu arabiy lug'atlarda «naqd» so'zining bosh ma'nosi - «saralamoq», ya'ni yaxshini yomondan yoki aslni soxtadan ajratish demakdir. «Naqada» o'zagidan kelib chiqqan tanqid istilohi muhokama qilmoq, tekshirmoq, o'rganmoq, nimaningdir haqqoniyliги va to'g'riligini isbotlamoq, yutuq va kamchiliklarini aniqlash, badiiy asarni baholash, izohlash kabi ma'nolarni ifodalaydi[1:13].

O'tgan asrda Miyon Buzruk, Sotti Husayn, Izzat Sulton, Homil Yoqubov, Abdurahmon Sa'diy, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Umarali Normatov, Naim Karimov, Hotam Umurov singari munaqqidlarining o'zbek adabiyoti tanqidchiligiga qo'shgan hissasi kattadir.

Mustaqillikdan so'ng adabiy tanqid taraqqiyotining asosiy tendensiyalaridan biri ilgari badnom etilgan yozuvchi shoirlar ijodini biografik o'rganish edi. Masalan, Ozod Sharafiddinov Mustaqillikni quchoq ochib kutib olgan va birinchi galda ko'nglidagi eng buyuk armoni millat istiqloli yo'lida shohid ketgan nohaq qatag'on qurboni bo'lgan adiblarning nomini oqlab, xalqqa tanitish uchun bor imkoniyatini ishga soldi. O'zbek she'riyatining yulduzi Cho'lpon[4:576], Fitratlar qatorida qatag'on bo'lgan shoirlarning she'rlarini jamlab, 1969-yilda "Tirik satrlar" nomli kitobini xalqqa taqdim etadi.

O'zbek adabiy tanqidchiligini albatta Naim Karimov hamda Umarali Normatov kabi ikki buyuk xalq ismini eshitgan, taniqli tanqidchilarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ularning Hamza, Fitrat, Cho'lpon, Oybek haqida yozgan maqolalari tanqidchiligimizda o'z o'rnini topgan. Jamoat arbobi, o'zbek adabiyotshunosi Naim Karimov 1932-yil 12-dekabrda Toshkentda tavallud topadi. Uning o'qimishli olim bo'lishida oilasining o'rni yuqori edi sababi munaqqid ziyolilar oilasida tug'ilib-o'sgan. U nafaqat yozuvchi balki Oybekning 20, G'afur G'ulomning 12, Hamid Olimjonning 10, Hamzaning 5 jildli to'la asarlarini tayyorlab, nashr etishda ishtiroki orqali matnshunos sifatida faoliyat ko'rsatgan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, 1991-yildan so'ng Behbudiy, Cho'lpon, Qodiriy, Usmon Nosir kabi qatag'on qurbonlari ijodi haqida keng ko'lamli ish boshlab, ular haqida aytilmagan ma'lumotlarni oshkor etadi. Naim Karimov Cho'lpon-u Fitratdan tortib, Usmon Azim[5:557]gacha bo'lgan adib va yozuvchilar ijodi bo'yicha maqolalar yaratdi. Uning "XX asr adabiyoti manzaralari" nomli kitobi bo'lib unda adabiyotshunoslar haqida salmoqli fikrlar mavjud. XX asrning so'nggi choragidan buyon Oybek hayoti va ijodini tadqiq hamda targ'ib etish N. Karimov uchun chorak asr ichida Oybek haqida yuzga yaqin maqola e'lon qilishi, beshta kitob chop etishi, yigirma jildlik nashrga bosh-qosh bo'lishga sabab bo'ldi. Gap faqat maqola, kitob, bajarilgan ish sanog'idagina emas, ularning salmog'ida, mohiyatida, yangitigida, yangi zamonning yangi talablariga munosib ekanidadir. Adabiyotshunos Naim Karimov Oybekning vafotidan keyin ham bajariladigan har bir marosim-u udumlarda bosh bo'lgan, uning adabiy merosini yigirma jildlik "Mukammal asarlar"ni akademik nashrdan Oybekning rafiqasi Zarifa Saidnosirova bilan birgalikda chiqartirib, kitobxonlarga tortiq qildi. Munaqqid faqatgina Oybek ijodini o'rganish bilan cheklanmasdan hayoti va ijodini tinimsiz o'rganish natijasida N. Karimov "Oybek", "Oybek gulshanida qolgan g'unchalar", "Oybek va Zarifa", "Ilhom chashmasining ajib mavjlari" singari asarlarini chop ettirdi. Naim Karimov "Ikki darg'a" maqolasida ham Oybekning tarjimonlik mahoratini yoritib beradi. Maqolada Otajon Hoshim va Oybek haqida so'z borib, ikkisi ham Toshkentda bir adabiy muhitda tug'ilgan, birga o'qigan, biri jumhuriyat Fanlar Qo'mitasi rahbari, biri bo'lsa oddiy ilmiy rahbar bo'lib faoliyat yuritadi. Oybek Pushkin, Gorkiy, Anatol Frans kabi shoirlarning asarlaridan parchalar tarjima qilib borar edi va 1936-yilda Pushkin vafotining 100 yilligi munosabati bilan "Yevgeniy Onegin" asarini tarjima qilish uning mekiga tushadi. Oybek asar tarjimasini vazni qanaqa bo'lishi kerak, so'zma-so'z tarjimami yoki asarni o'qib o'zining erkin fikrini bayoni orqali tarjima qilgan ma'qulmi degan savollar iskanjasida qolgan edi. O'sha vaqtda ustoz Cho'lpon yordam sifatida boshlang'ich misralarini 11 hijoli barmoq 9 hijoli yamb shaklida tarjima qilib beradi Asarni tarjima qilish yakunlanab borgan sari asli bilan solishtirilib, xato va kamchiliklari ko'zga ko'rinib borar edi, Otajon Hoshim qo'pol joylarini ko'rsatib, tarjimini tahrirdan o'tkazar edi. Oybek tarjima qilish jarayonida "zaruriy minimum" deb atalgan yo'lni tanlaydi, unga ko'ra chet tildan kirgan eng muhim so'z, ism va atamalarni o'z holida saqlab qoldirar edi. Tarjimini Otajon

Hoshim tahrirlardi, lekin buyuk adabiyotshunosimiz Oybek doim uning aytganlariga quloq solmas edi:

Jarkop, blan manje orasidayoq

Keltirib qo'yishar tsimlyanskiyni...

" Ammo Otajon Hoshim bu satrlardagi o'zbek tiliga yot atamalar munosabati bilan bunday yozadi: «Bunda blan-manje so'zini saqlashga to'g'ri keladi, lekin tsimlyanskiy so'zini tushunishni shu joyning o'zida osonlashtirish mumkin edi. Buning uchun tsimlyanskiy bilan birga sharob so'zini ustalik bilan ishlatib yuborish yetarli edi». Bu, ehtimol, nazariy jihatdan to'g'ri mulohazani e'tiborga olish uchun tarjimon shu satrlardagi boshqa biror so'z, biror mazmuni qurbon qilishga majbur edi. Shuning uchun u muharrirning hamma mulohazalariga ham quloq sola bermagan. Agar u Otajon Hoshim bilan fikrdosh bo'lganida, u o'z tarjimasida ulvny, bokira, vosila, g'addor, ro'yo, maxmura, qadar singari «omma tiliga va hozirgi adabiy tilimizga kirmagan so'zlar»dan istifoda etmagan va tarjima tilini xiyla kambag'allashtirgan bo'lardi"[2].

Xalq orasida mashhur bo'lish juda oson ish, lekin aziz bo'lish, kitobxonlarning hurmatiga sazovor bo'lib, o'z nomini xalq orasida muhrlab qoldirish juda mashaqqatli mehnat talab etadi. Naim Karimov o'z intiluvchanligi, bajarayotgan har bir ishiga ma'suliyat bilan yondashdi. Munaqqid faqat Oybek ijodini o'rganish bilan cheklanmasdan, Cho'lpon, Maqsud Shayxzoda, Usmon Nosir Nosirlarning ijodini ham o'rgandi. Uning Usmon Nosir ijodini o'rganish uchun u surgun qilingan Kemerovo, Biyskkacha borganligi o'z ishining fidoyisi ekanligidan dalolat beradi. Naim Karimovning oldiga qo'ygan asosiy maqsadi o'z xalqining madaniy merosini avlodlarga yetkazish edi. Tanqidchi Usmon Nosir haqidagi hujjatlar bilan tanishdi, shoirning zamondoshlari bilan suhbatlashib, arxivlarni o'rganishi natijasida "Usmon Nosir. Hayotiy lavhalar. Hujjatlar. Rivoyatlar", "Usmon Nosirning so'nggi kunlari" nomli kitoblarni xalqimizga tortiq etdi.

O'zbek adabiyotidagi yetuk munaqqidlardan yana biri "Sehrli to'rt satr", "Adib huzurida 19 daqiqa", "Sokin ko'ngil rozlari" kabi maqolalar muallifi Umarali Normatovdir. Umarali Normatov Naim Karimov bilan deyarli tengdosh edi. Uning faoliyati, ijodiga nazar tashlar ekanmiz maqolalarining hayotiyliigi o'quvchini o'ziga jalb etadi. Adibning "Sehrli to'rt satr" maqolasida hayotiylik ufurib turadi.

Umarali Normatov o'zbek yozuvchisi Shuhratni solih farzand, haqiqiy ijodkor, maqsadi faqatgina xalqqa manzur bo'lish, ularning qalbidan joy egallash, mehrini qozonish ekanligini ajib jumlar bilan biz kitobxonlarga tortiq etadi. Ko'pchilik Shuhratga yubiley o'tkazishni maslahat bergan edi. Bilamizki, har bir insonni voyaga yetkazish, tarbiyalash ota va onalarimizning vazifasi, yillar o'tib ularni ardoqlash esa farzandlar burchidir. Shuhrat ham avval o'z onasining ana undan keyin o'ziga navbat kelishini inobatga olib 1968-yilda onaxonning 80 yoshli yubleyini tashkillashtiradi. Yubileyda Abdulla Qahhor so'zga chiqib, onalar yubileyida birinchi bor bo'lganligini

aytib o'tadi. Demak, yozuvchilar orasida Shuhrat ilk bor bu an'anani boshlab bergan deyishimiz mumkin. Umarali Normatov maqolasi orqali Shuhratning insoniy fazilatlarini ochib beradi. Shuhrat onasining vafoti, "Jannat qidirganlar" asarining nashr etilishi sababli o'z yubileyini qila olmaydi, Izzat Sulton boshchiligida Abdulla Oripov, Umarali Normatovlar bilan birga Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarida mehmon bo'ladi. Shuhrat mashhur yozuvchi edi lekin adabiy uchrashuvlardan keyin o'tkaziladigan bazm-u jamshidlar unga manzur bo'lmaydi. Bu ulfatchilikda kamchilik borligi uchun emas balki uyushtirilganligi uchun norozi bo'ladi. Men uchun kitobxonlar bilan suhbat qilganim yetadi, shunaqa hol takrorlansa men ortga qaytaman qabilidagi fikrlarini bildiradi. Biroq mana shu tortishuv, nizolar orqali Umarali Normatov mahoratini ishga solib Shuhratning naqadar kamtarin ekanligini ko'rsatib beradi. Ular Shahrisabzga yo'l olishganda Abdulla Oripov to'rt satr she'r bitadi va uchrashuvda minbar qarshisida ushbu misrani o'qib berganda yozuvchining ko'zlarida yosh qalqiydi.

Umarali Normatov ijodkor shaxsiga yaxlit qarashni asarlari, maqolalarida shakllantirishi orqali biografik metodga birinchilardan qo'l urgan. U ijodkorga adabiyot vakili debgina emas, inson sifatida qarab, uning tabiati haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi va bu ma'lumotlar buyuk shoirni kitobxonga yanada yaqinlashtirib, asarlariga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Umarali Normatov ham Naim Karimov singari Oybek ijodi uning nazaridan chetda qolmadi. "Adib huzurida 19 daqiqa" nomli maqolasida 1964-yil qishda Oybekni xotirlab Subutoy Dolimov, G'ulom Karimovlar bilan birgalikda uning xonadoniga tashrif buyurishadi. Oybek o'sha vaqtlarda betob bo'lib, mehmonlar borishidan oldin rafiqasi Zarifa Saidnosirova tolitib qo'ymasliklarini iltimos qiladi. Oybek so'zlasha olmasdi, biroq ayrim so'zlarni aytib mehmonlar xotirasida o'tmishni uyg'otar edi. Munaqqid xotirasida Oybekning "tong yulduzi, ushshoq, dutor" so'zlarini eshitib ustozlaridan eshitgan voqealar gavdalanar edi. Oybek adibning asl ismi emas balki taxallusi bo'lib, turkiyalik Shohid Eson ismli olim "...iste'dodli yoshlarga qadim turkiy shavkatli siymolar nomlarini, chunonchi, Muso Toshmuhammad o'g'liga "Oybek", Usmonbek Dolimovga "Subutoy", Zuhuriddin Salohiddinovga "Oltoy" ismlarini adabiy taxallus sifatida tavsiya etgan, ular ham o'z navbatida bu tabarruk ismlarni mamnuniyat bilan qabul qilganlar. Adib huzuridagi atigi 19 daqiqa bir necha asrlik voqealarni eslata oladi. Naim Karimov shoir yoki yozuvchiga bo'lgan qarashlari, ular haqida izlab topilgan ma'lumotlari orqali maqolasini yoritisa, Umarali Normatov o'zi ko'rgan, ishtirok etgan, voqealarni, yozuvchilar bilan qilgan suhbatlarini maqola sifatida o'quvchiga uzatar edi.

Xulosa qilib aytganda, bu ikki adabiyotning ulug' vakillari ijodi tanqidchiligimizda ham adabiyot tarixida ham, xattoki o'quvchilar qalbining tub-tubidan ham o'zgarmas joy egalladi. Ularning maqolalari, yozgan asarlari

yo'zuvchilarimizning shaxsiyatini ochish, tabiiy dunyosini ko'ra olish uchun imkon beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Назаров Б. ва бошқалар. Ўзбек адабий танқиди тарихи. Т. Чўлпон НМИУ. 2012.
2. Шарафиддинов О. Довондаги ўйлар Т.: Маънавият, 2004.
3. Karimov N. "Ikki darg'a" // "Guliston" jurnali: 1990-yil 9-son
4. Normatov U. "Sehrli to'rt satr" (maqola). // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi: 2009-yil 11-son.
5. Normatov U. "Adib huzurida 19 daqiqa" (maqola). // "Jahon adabiyoti" jurnali: 2005-yil 5-son.
6. Yuldashev, N.T. (2019). Tradition and novelty in Chulpan poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12(80), p.576.
7. Sultonqulova, F. (2020). Metaphorical images in Osman Azim poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04 (84), 537-539. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS>
8. Sultonqulova, F. (2021). Metaphors of colors in Usman Azim poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 02 (94), 350-353. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS>
9. Sultonqulova, F. (2022) Усмон Азим шеъриятида фольклоризм асосидаги метафоралар // International Conference "Language and cultures: Prospects for Development in the 21st Century". – p.p. 177-178.
10. Raimova S.(2019) Artistic interpretation of religious and educational issues of uzbek poetry in the period of independence.(As an example works of A.Aripov,A.Mahkam and A.Uktam) //ISJ Theoretical and applied sciences. – № 11 (71). – P. 42-44. Impact Factor: 6.6.
11. Raimova S. (2021) Artistic arts in the works of Asqar Mahkam //ISJ Theoretical and applied sciences. – 2021.– № 06. (98). – P. 347-349. Impact Factor: 6.6.
12. Hayitova Yu. Some strikes to the poem of the Shodmonkul Salom. // *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10 (102), 1033-1036.
13. TO'LIBOYEV, S. (2022). Mustaqillik yillarida o'zbek-turk adabiyot aloqalari ./Filologik tadqiqotlar Til, adabiyot, ta'lim. 2023, 4. – 84-85.